




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 29885,1 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 68,7%i yoki 20522,4 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 31,3 %i yoki 9362,7 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 23,9 % punktga ko`payib, 41,8% ni yoki 12491,8 mlrd. so`mni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari:

Respublika byudjeti 2093,3 mlrd. so`m	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 7556,4 mlrd. so`m	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 126,1 mlrd. so`m	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi 12,1 mlrd. so`m	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 2703,9 mlrd. so`m
--	---	---	---	--

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

Aholi mablag`lari 3627,1 mlrd. so`m	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari 4564,6 mlrd. so`m	To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar 2431,4 mlrd. so`m	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 555,9 mlrd. so`m	Korhona mablag`i 6214,3 mlrd. so`m
---	--	--	---	--

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 23,9 % punktga kamayib, 58,2 % ni yoki 17393,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.


O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag'i ulushi salmoqli bo'ldi – 6214,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,8 %. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,1 %i yoki 3627,1 mlrd.so'm o'zlashtirildi.

Joriy davrda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi jadal o'sib 7556,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-mart davridagi jami asosiy kapitaldagi ulushiga nisbatan 16,1 % punktiga ko'payib 25,3 %ni tashkil etdi.



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 4564,6 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,3 % ini tashkil etib, o'tgan o'tgan yil mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 8,8 % punktiga kamayish kuzatildi), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2431,4 mlrd.so'm (8,1 % va 5,4 % punktiga kamayish), boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 555,9 mlrd.so'm (1,9 % va 0,7 % punktiga kamayish), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 2703,9 (9,0 % va 3,2 % punktiga ko'payish), Respublika byudjeti 2093,3 mlrd.so'm

(7,0 % va 4,1 % puktiga ko`payish), Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 126,1 mlrd. so`m (0,4 %) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 12,1 mlrd.so`m (0,1 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar o`shish sur`atlarini moliyalashtirish mabalari bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan o`zlashtirilgan investitsiyalarda kuzatildi – o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 marta o`shish. Bu Sho`rtan gaz-kimyoy majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg`i ishlab chiqarishni tashkil etish, To`raqo`rg`on IESda umumiy quvvati 900 MVt bo`lgan ikki 450 MVt quvvatli bug`gaz qurilmali blokdan iborat yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi, Taxiato`sh IESda 230-280 MVT quvvatli ikki bug`gaz qurilmasi qurilishi, Navoiy IESda 450 MVt quvvatli ikkinchi bug`gaz qurilmasini qurish orqali kengaytirish, ammiak va karbamid, azot kislotasi, polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi, Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari rehabilitatsiyalash, elektr energiyasi iste`molini hisobga olish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish kabi yirik investitsiya

loyihalarining jadal olib borilayotgani bilan bog`liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo`yicha tarkibi

	mlrd.so`m	o`shish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	29885,1	129,9	100,0
Republika byudjeti	2093,3	3,1 m	7,0
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	126,1	186,8 m	0,4
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	12,1	-	0,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	2703,9	2 m	9,0
O`zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	7556,4	3,6 m	25,3
Korhona mablag`lari	6214,3	93,3	20,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	4564,6	82,7	15,3
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar	2431,4	78,2	8,1
Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	555,9	195,5	1,9
Aholi mablag`i	3627,1	109,6	12,1


2019 yil
yanvar - mart

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so`m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo`yicha (jamiga nisbatan % da):							
		Respublika byudjeti	Korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari	Aholining o`z mablag`lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag`lari
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1328,8	14,2	16,0	14,9	32,3	0,1	0,6	7,1	14,8
viloyatlar:									
Andijon	1113,5	9,9	17,9	20,8	37,3	0,1	-	-	14,0
Buxoro	1529,2	5,0	12,4	18,3	48,7	0,4	-	-	15,2
Jizzax	753,6	16,7	21,4	20,0	19,1	5,6	-	-	17,2
Qashqadaryo	5190,8	1,3	11,1	6,2	78,7	0,1	-	-	2,6
Navoiy	4597,5	0,9	17,3	5,2	44,6	-	-	28,5	3,5
Namangan	2941,5	2,9	10,6	7,3	32,9	0,2	-	34,7	11,4
Samarqand	905	18,6	21,8	29,2	10,0	2,1	-	-	18,3
Surhondaryo	1019,4	11,0	14,5	24,5	17,4	1,1	0,3	-	31,2
Sirdaryo	519,8	15,1	23,1	17,0	11,0	-	-	-	33,8
Toshkent	2476,3	15,0	19,2	19,5	20,1	0,1	-	11,2	14,9
Farg`ona	1110,4	11,3	20,3	25,7	22,4	0,5	-	-	19,8
Xorazm	495,7	11,4	17,2	34,6	10,9	0,9	-	-	25,0
Toshkent sh.	5853,7	7,5	42,9	7,6	9,9	0,3	-	-	31,8

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish sur`atlari



Hudular kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi bo`yicha o`tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o`shish sur`ati 2,1 marttaga ko`payish Navoiy viloyatida kuzatildi. Bu asosan qimmatli metal konlarini o`zlashtirish bo`yicha investitsiyalar bilan bog`liq.

Qashqadaryo viloyatida suyultirilgan sintetik yo`lgi ishlab chiqarishini tashkil etish, neft-gaz konlarini o`zlashtirish kabi yirik loyihalarning olib borilishi natijasida joriy davrdagi investitsiyalar hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2 marta ko`proq bo`lishiga sabab bo`ldi.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o`tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 186,0 % ni tashkil etishi To`raqo`rg`on tumanida issiqlik elektr stansiyasi qurilishining davom ettirilayotgani bilan izohlash mumkin.


Buxoro viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻtgan yilga nisbatan keskin tushishi - 50,0 %. Bu albatta oʻtgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilishi boʻyicha investitsiyalarning katta boʻlgani bilan izohlanadi.

Jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi boʻyicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,6 %i oʻzlashtirildi.


Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ham katta hajmdagi investitsiyalar oʻzlashtirilib, Respublika boʻyicha jami investitsiyalar hajmidagi ulushi mos ravishda 17,4 va 15,4 %ni tashkil etdi.

Xorazm hamda Sirdaryo viloyatlarida oʻzlashtirilgan investitsiyalarning Respublikada oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi eng kam ulushlar qayd etildi - 1,7 %.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida hududlarning ulushi, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo`yicha 12080,9 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami investitsiyalarning 40,4 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 14905,6 mlrd.so`m (jami investitsiyalarfagi ulushi 49,9 %) va boshqa xarajatlarga 2898,5 mlrd. so`m (9,7 %) o`zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaining ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Samarqand viloyatida kuzatildi – 61,1 %. Bu mazkur hududda ko`plab turar joylar qurilishi kabi faoliyat turida jadal ishlar olib borilayotgani bilan izohlanadi.

Jizzax viloyatida ham yakka tartibda qurilgan ko`plab turar-joylar, ijtimoiy soha obyektlari qurilayotgani natijasida ushbu hududdagi qurilish-montaj ishlari ulushining katta – 61,0 % bo`lishiga xizmat qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish
- Boshqalar

Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo`naltirildi. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 17732,6 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 59,3 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 7911,3 mlrd.so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 26,5 %ini tashkil etdi. Qolgan 14,2 %, ya`ni 4241,2 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.


Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Qashqadaryo viloyatida kuzatilib, u 90,5 % ni tashkil etdi. Bu suyultirilgan sintetik yoqilg`i ishlab chiqarishini tashkil etish bo`yicha yangi qurilish ishlari bilan bevosita bog`liq.

Shuningdek, ushbu ko`rsatkich Namangan viloyatida 78,3 %,

Qoraqalpog`iston Respublikasida 72,9 %, Toshkent viloyatida 57,6 %, Samarqand viloyatida 56,3 % ni tashkil etdi.


Bu ko`rsatkichning eng past darajasi hamon Andijon viloyatida kuzatilmoqda va u 23,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida takror ishlab chiqarish tarkibi:



Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini hamda boshqa soha obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya va texnik – tehnologik jihatidan qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi bo`yicha eng yuqori - 54,4 % ko`rsatkich Andijon viloyatida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyat turi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8236,1 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 27,6 %i o`zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoatida ham salmoqli investitsiyalar – 5545,0 mlrd so`m o`zlashtirildi. Uning tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 1182,1 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,0 %);
- metallurgiya sanoati 1093,7 mlrd.so`m (3,7 %);
- to`qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 970,9 mlrd.so`m (3,3 %).

Tog`-kon sanoatida 2030,9 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarning 6,8 %i o`zlashtirildi. Shundan 1257,8 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarning 4,2 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo`naltirilgan.

2019 yil
yanvar - mart

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so`m

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit			investitsiya	kredit
O`zbekiston Respublikasi	10543,7	2 736,6	7 807,1	2431,4	8112,3	305,2	7807,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	429,6	73,5	356,1	69,7	359,9	3,8	356,1
viloyatlar:							
Andijon	415,5	211,2	204,3	210,7	204,8	0,5	204,3
Buxoro	744,2	598,7	145,5	332,5	411,7	266,2	145,5
Jizzax	143,7	81,9	61,8	79,8	63,9	2,1	61,8
Qashqadaryo	4084,2	351,6	3 732,6	346,8	3737,4	4,8	3732,6
Navoiy	2052,6	39,8	2 012,8	39,8	2012,8	-	2012,8
Namangan	968,9	126,0	842,9	119,6	849,3	6,4	842,9
Samarqand	90,7	19,5	71,2	13,3	77,4	6,2	71,2
Surhondaryo	177,4	80,9	96,5	78,4	99,0	2,5	96,5
Sirdaryo	57,1	5,3	51,8	5,3	51,8	-	51,8
Toshkent	498,5	439,4	59,1	432,7	65,8	6,7	59,1
Farg`ona	248,6	215,1	33,5	212,1	36,5	3,0	33,5
Xorazm	53,9	16,7	37,2	15,3	38,6	1,4	37,2
Toshkent sh.	578,8	477,0	101,8	475,4	103,4	1,6	101,8

Joriy davrda 10543,7 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 35,3 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.


Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 2736,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 7807,1 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiyalar hisobidan joriy davrda 2431,4 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lsa, 8112,3 mlrd. so`m boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sinh sur`ati 191,2 %ni tashkil etdi.

O`sinh sur`atlarini hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Jizzax viloyatida qayd etildi – 20,7 marttaga ko`payish, eng past o`sinh surati Buxoro viloyatida kuzatildi 37,6 %.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning o`sinh suratlari (%da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da



Elektr, gaz bilan ta`minlash faoliyati bo`yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 58 %i yoki 6155,3 mlrd. so`m xorijiy investitsiya va kreditlar

o`zlashtirilgan bo`lib, ular asosan yuqorida keltirib o`tilganidek 450 MVt quvvatli 2 ta bug`-gaz qurilmasini kengaytirish bo`yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo`lgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari bilan bog`liqdir.

Qayta ishlash sanoatida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilib, jami 1714,1 mlrd.so`m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 16 %i o`zlashtirildi.

Tog`-kon sanoatida esa u 1125,0 mlrd. so`mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 11 % ni tashkil etdi. Xauzak va Shodi konlarini o`zlashtirish, Qo`ng`irot hududida geologik-qidiruv ishlarini olib birish, Xisor investitsiya bloki, Ustyurt hududlarida konlarni o`zlashtirish va uglevodorod qazib olishni tashkillashtirish kabi yirik investitsiya loyihalari bo`yicha katta hajmdagi investitsiyalar o`zlashtirilmoqda.


Obyektlarni ishga tushirish

Kasalxona, poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiy muassasalarni qurish va kapital rekonstruksiya qilish uchun 154,7 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirildi. Ulardan 26,5 %i yoki 41,0 mlrd. so`m yangi qurilish bo`yicha o`zlashtirilgan bo`lsa, qolgan 73,5 %i yoki 113,7 mlrd. so`m obyektlarni rekonstruksiya qilish bo`yicha o`zlashtirildi.

Kasb-hunar kollejlarini qurish va rekonstruksiya qilishga 16,7 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirilgan bo`lsa, oily ta`lim muassasalarini yangi qurilishi va rekonstruksiyasiga 102,4 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirildi.

O`quv jarayonini yanada takomillashtirish bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida umumta`lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish va rekonstruksiya qilishda 108,0 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirilib, 51,0 mlrd. so`m kapital ta`mirlashga yo`naltirildi.

Hududlar kesimida umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar qurilishiga va rekonstruksiya bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar




Joriy davrda umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha etakchi o'rinni Samarqand viloyati - 25,3 mlrd. so'm bilan egallab turgan bo'lsa, bu sohada eng kam o'zlashtirilgan investitsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi – 0,6 mlrd. so'm.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va rekonstruksiya qilishga 260,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 1935 o'rinli muassasalar rekonstruksiya qilinib ishga tushirildi.


Bu obyektlar bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalarning 8,5 %i yoki 22,1 mlrd. so'm yangi qurilishga yo'naltirilgan bo'lsa, qolgan 91,5 %i yoki 238,0 mlrd. so'm rekonstruksiya ishlariga yo'naltirildi.

Qishloq joylarda:


Gaz tarmog`i



Suv tarmog`i




Turar-joylar



	Gaz tarmog`i, km	Suv tarmog`i, km	Turar-joylar, soni
O`zbekiston Respublikasi	15,2	328,4	15156
Qoraqalpog`iston Respublikasi	-	-	1714
Andijon	-	96,3	554
Buxoro	-	61,7	844
Jizzax	4,6	27,3	692
Qashqadaryo	-	-	1483
Navoiy	-	13,8	631
Namangan	-	27,7	1392
Samarqand	9,0	46,7	1544
Surhondaryo	-	5,1	1450
Sirdaryo	-	-	332
Toshkent	-	-	1939
Farg`ona	1,6	48,9	1280
Xorazm	-	-	495
Toshkent sh.	-	0,9	803

Gaz tarmoqlari uchun jami 1,3 mlrd.so`m investitsiyalar o`zlashtirilgan bo`lib, ularning barchasi, ya`ni 15,2 km uzunlikdagi gaz tarmog`i aholi mablag`lari hisobidan moliyalashtirildi.

Suv tarmog`iga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo`yicha tarkibi



Respublika bo'yicha 328,4 km suv tarmoqlari o'tqazilgan bo'lib, jami 97,3 mlrd.so'm investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 18,2 mlrd.so'm respublika byudjeti, 1,3 mlrd.so'm suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi, 5,7 mlrd. so'm aholi mablag'lari, 13,0 mlrd.so'm chet el investitsiyalari va kreditlari hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 59,1 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Foydalanishga topshirilgan turar-joylar uchun jami 4 317,0 mlrd. so'm yo'naltirilgan bo'lib, shundan, Respublika byudjeti hisobidan 42,7 mlrd. so'm, korhona va tashkilotlar o'z mablag'lari 9,1 mlrd. so'm, aholi mablag'lari 2 030,0 mlrd. so'm hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 2 235,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi

Foydalanishga topshirilgan turar-joy va yotoqxonalar qurilishi (yangi qurilish va rekonstruksiya)

	Uylar soni birlik	Umumiy maydoni, ming kv.m	2018 yil yanvar-martga nisbatan, %da
O'zbekiston Respublikasi	15156	2336,8	125,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1714	216,4	106,4
Andijon	554	83,3	90,5
Buxoro	844	191,0	299,8
Jizzax	692	118,3	108,0
Qashqadaryo	1483	221,6	104,1
Navoiy	631	99,3	124,4
Namangan	1392	152,6	115,2
Samarqand	1544	172,5	143,2
Surxondaryo	1450	210,5	148,6
Sirdaryo	332	44,6	278,8
Toshkent	1939	292,6	113,1
Farg'ona	1280	244,9	133,9
Xorazm	495	96,5	81,8
Toshkent sh	803	187,0	141,9

Joriy davrda 2336,8 ming kv.m turar joylar foydalanishga topshirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,0 %ni, shundan, 2159,1 ming kv.m yakka tartibda jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,0 %ni, namunaviy loyihalar asosida qurilgan va ishga tushirilgan maydon esa 171,9 ming kv.m va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 %ni tashkil etdi.



2019 yil
yanvar - mart

Asosiy kapitalga investitsiyalar

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Saipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-56